“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

Oʻrmon resurslarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida qonuniylikni ta'minlashda prokuror nazorati: amaliyot tahlili va takomillashtirish masalalari

Baxtiyor Mamadaliyev,
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: ruziyev.b.99@gmail.com

Аннотация. Maqolada Oʻzbekistonda oʻrmon resurslarini muhofaza qilish, asrash va ulardan oqilona foydalanish sohasida qonuniylikni ta'minlashda prokuror nazoratining oʻrni tahlil qilingan. Nazorat amaliyotida aniqlanayotgan oʻrmon yongʻinlari xavfsizligi talablarini buzish, daraxtlarni noqonuniy kesish, budjet mablagʻlari va davlat xaridlaridan qonunga xilof foydalanish, zararkunandalarga qarshi choralarni yetarli darajada amalga oshirmaslik hamda ma'muriy javobgarlikni qoʻllashdagi kamchiliklar tizimlashtirilgan. Shuningdek, vakolatli organlar faoliyati, masofaviy monitoring imkoniyatlari va amaldagi javobgarlik choralarining samaradorligi baholangan. Prokuror nazoratining huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish, javobgarlikni kuchaytirish hamda raqamli nazorat vositalaridan samarali foydalanish boʻyicha takliflar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. oʻrmon resurslari, oʻrmonlarni muhofaza qilish, oʻrmon xoʻjaligi, prokuror nazorati, qonuniylik, oʻrmon yongʻinlari, noqonuniy daraxt kesish, ekologik huquqbuzarlik, davlat oʻrmon nazorati, yuridik javobgarlik, masofaviy monitoring

Аннотация. В статье анализируется роль прокурорского надзора в обеспечении законности в сфере охраны, сохранения и рационального использования лесных ресурсов Узбекистана. Систематизированы наиболее распространённые нарушения, связанные с несоблюдением требований пожарной безопасности, незаконной вырубкой деревьев, неправомерным использованием бюджетных средств и нарушением правил государственных закупок, ненадлежащей защитой лесов от вредителей, а также недостатками при применении мер административной ответственности. Рассмотрены проблемы деятельности уполномоченных органов, дистанционного мониторинга лесных территорий и соразмерности установленных санкций причинённому экологическому ущербу. Предложены меры по совершенствованию правовых и организационных механизмов прокурорского надзора, усилению ответственности и более эффективному применению цифровых технологий контроля.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. лесные ресурсы, охрана лесов, лесное хозяйство, прокурорский надзор, законность, лесные пожары, незаконная вырубка, экологические правонарушения, государственный лесной контроль, юридическая ответственность, дистанционный мониторинг

Annotation. The article examines the role of prosecutorial oversight in ensuring legality in the protection, conservation, and sustainable use of forest resources in Uzbekistan. It systematizes the most common violations, including non-compliance with forest fire-safety requirements, illegal logging, misuse of public funds, breaches of public procurement rules, inadequate forest pest-control measures, and shortcomings in the application of administrative liability. The study also addresses deficiencies in the activities of competent authorities, limitations of remote forest monitoring, and the proportionality of existing sanctions to the environmental damage caused. It proposes improvements to the legal and organizational mechanisms of prosecutorial oversight, stronger liability measures, and more effective use of digital monitoring technologies.

Keywords. forest resources, forest protection, forestry, prosecutorial oversight, legality, forest fires, illegal logging, environmental offences, state forest control, legal liability, remote monitoring

O‘zbekistonda o‘rmon bilan qoplangan maydonlarni kengaytirish va ulardan samarali foydalanish davlat ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xususan, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida o‘rmon bilan qoplangan maydonlarni 6,1 million gektarga yetkazish vazifasi belgilangan. Mazkur strategik maqsadlarga erishish yo‘lida keng ko‘lamli amaliy ishlar, jumladan, o‘rmonzorlarni sun'iy yo‘ldosh orqali kuzatish, “O‘zbekkosmos” agentligi va geografik axborot tizimlari (GIS) imkoniyatlarini joriy etish jadal olib borilmoqda. Masalan, 2023-yilning o‘zida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida 235 ming gektar, xususan, Orol dengizining qurigan tubida 220 ming gektar maydonda cho‘l o‘simliklaridan iborat “yashil qoplamalar” barpo etildi. Shuningdek, o‘rmon mahsulotlari yetishtirish va ekoturizmni rivojlantirish hisobiga sohada 8,8 trillion so‘mlik yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarildi.

Biroq, sohaga yo‘naltirilayotgan ulkan resurslar va innovatsion yechimlar o‘z-o‘zidan ekologik xavfsizlikni kafolatlamaydi. Davlat dasturlari ijrosi fonida o‘rmon yong‘inlari, noqonuniy daraxt kesish va budjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish kabi tizimli huquqbuzarliklar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Aynan mana shunday keng ko‘lamli investitsiyalar va yaratilayotgan milliy boylik prokuror nazoratining obyekti sifatida alohida huquqiy himoyaga muhtojdir.

O‘rmon muhofazasidagi qonunbuzarliklarni xavflilik darajasi bo‘yicha turkumlash maqsadga muvofiq. Ular orasida eng ko‘p uchraydigan va og‘ir oqibatlar keltirib chiqaradigani – yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzishdir. Ijtimoiy so‘rovnomada

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qatnashganlarning 30 foizi aynan ushbu yoʻnalishdagi nazoratning sustligini bildirgan.

Amaliyotda hududlarni tozalamaslik, minerallashtirilgan himoya chiziqlarini oʻtkazmaslik, suv manbalarini tashkil etmaslik va yongʻinga qarshi rejalarni nomigagina tuzish holatlari uchrab turibdi. Bunday vaziyatlarda prokurorlar aybdorlarni maʼmuriy javobgarlikka tortish bilan birga, yetkazilgan zararni undirish yuzasidan sudlarga daʼvo arizalari kiritishlari shart.

Daraxt va butalarning noqonuniy kesilishi sohadagi yana bir oʻtkir muammodir. Hozirda ushbu qonunbuzarliklarni aniqlashda kosmik monitoring qoʻllanilayotgan boʻlsa-da, maʼlumot uzatishdagi uzilishlar vaqtida chora koʻrishga xalaqit bermoqda. Soʻrovnomada ishtirok etganlarning 63 foizi profilaktikani kuchaytirish uchun javobgarlikni ogʻirlashtirish zarurligini taʼkidlagan.

Shu bois, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 84-moddasidagi jazolarni kuchaytirish, Jinoyat kodeksining 198-moddasiga agrooʻrmon plantatsiyalaridagi noqonuniy daraxt kesish uchun alohida norma kiritish hamda “oʻrmon plantatsiyalarini noqonuniy kesish” tushunchasini qonunan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.Shuni alohida taʼkidlash kerakki, oʻrmon fondini asrash faqat tabiiy omillar bilan emas, balki qatʼiy moliyaviy intizom bilan ham chambarchas bogʻliq.

Xususan, davlat buyurtmalarini joylashtirish va budjet mablagʻlarini sarflashda axborot ochiqligini taʼminlamaslik yoki bajarilmagan ishlarni (masalan, yongʻinga qarshi tadbirlarni) qabul qilish hujjatlariga qoʻshib yozish soha rivojiga jiddiy putur yetkazmoqda. Prokuror nazorati jarayonida mazkur moliyaviy huquqbuzarliklar faqatgina iqtisodiy jinoyat sifatida emas, balki oʻrmonlarga bevosita ekologik zarar yetkazuvchi omil sifatida baholanishi shart.

Sohadagi yana bir institutsional muammo – oʻrmon nazorati mutasaddilarining oʻz xizmat vazifalariga masʼuliyatsizlik bilan yondashuvidir. Bu holat tekshiruv tartibining buzilishi, koʻrsatmalar ijrosining nazoratsiz qolishi, qonunbuzarlik qurollarining oʻrganilmasligi va eng yomoni, huquqbuzarlarning noqonuniy ravishda maʼmuriy javobgarlikdan ozod etilishida namoyon boʻlmoqda. Shu bilan birga, oʻrmon maydonlarining chiqindilar bilan ifloslanishi, investitsiya loyihalarida ekologik talablarning eʼtiborsiz qolishi va zararkunandalarga qarshi kurashning sustligi kompleks nazorat mexanizmini taqozo etadi.

Umuman olganda, prokuror nazorati hisobotlarining joriy qilinishi aniqlanayotgan qonunbuzilishlar sonining ortishiga xizmat qildi. Biroq prokuror nazoratining asil samaradorligi aniqlangan qonunbuzarliklarning miqdoriy koʻrsatkichi bilan emas, balki ularni keltirib chiqaruvchi tizimli omillarni bartaraf etish, yetkazilgan zararni amalda undirish va masofaviy monitoring kabi zamonaviy raqamli texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish darajasi bilan belgilanishi zarur.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “Oʻzbekiston–2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi 158-farmonida respublikada oʻrmon bilan qoplangan maydonlarni 6,1 mil.

gektarga yetkazish belgilangan.

O‘rmon fondi yer maydonlarida o‘rmonlarni kengaytirish, o‘rmon bilan qoplanganlik darajasini oshirish bo‘yicha doimiy ravishda o‘rmon barpo etish, o‘rmonlarni ko‘paytirish ishlari amalga oshirib borimoqda. 2023-yilda Samarqand, Jizzax va Farg‘ona viloyatlari hududidagi o‘rmonzorlar maydoni, chegaralari va ularning holatini aniqlash yuzasidan “O‘zbekkosmos” agentligi bilan shartnoma tuzilib, o‘rmonzorlar maydoni va holatini sun'iy yo‘ldosh orqali aniqlash ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, 2024-2025-yillarda bosqichma-bosqich qolgan hududlarda xam o‘rmonzorlar maydoni va holatini sun'iy yo‘ldosh orqali aniqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha “O‘zbekkosmos” agentligi bilan shartnoma tuzildi.

“Yashilloyiha” instituti tomonidan o‘rmon tuzish jarayoniga geoaxborot tizimlari (GIS) va sun'iy yo‘ldosh tasvirlari joriy etilib, daraxtlar bo‘yicha elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirilmoqda. Jumladan, o‘rmon bo‘limlari, kvartallari, o‘rmon bilan qoplangan va qoplanmagan maydonlarning kosmik suratlar asosida yangilangan elektron qatlamlari Davlat kadastrlari yagona tizimiga muntazam kiritib borilmoqda.

4850-qarorda belgilangan 2030-yilgacha bo‘lgan konsepsiya doirasida 2023-yilda 7012 gektar foydalanilmayotgan yer maydoni o‘zlashtirildi, ekologik barqarorlik uchun esa 235 ming gektarda o‘rmonlar barpo etildi va qayta tiklandi. Orol dengizi va Orolbo‘yida chang-tuz ko‘chishining oldini olish maqsadida 220 ming gektarda (Mo‘ynoqda 128 ming, Buxoroda 43 ming, Navoiyda 24 ming va Xorazmda 10 ming gektar) cho‘l o‘simliklaridan iborat “yashil qoplamalar” barpo qilindi. Shuningdek, 1 100 tonna urug‘ jamg‘arilib, 1 300 gektar maydondagi niholxonalarda 120 mln dona ko‘chat yetishtirildi (shu jumladan, 32 mln dona tut va 14 mln dona terak hamda pavlovniya). “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2023-yil kuz mavsumida 31 mln dona iqlim sharoitiga mos manzarali, mevali daraxt va butalarning ko‘chat va qalamchalari shundan, respublika bo‘yicha 9443 ta mahallalarga 2 mln dona, 6739 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 813 ming dona ko‘chatlar bepul yetkazib berildi. Loyiha hujjatlari asosida respublikamizning 134 ta tuman va shaharlarida 347 gektar hamda Zomin davlat o‘rmon fondi yerlarida 110 gektar jami 457 gektar maydonda “yashil bog‘lar” barpo etish ishlari amalga oshirildi[2].

Toshkent-Samarqand temir yo‘lining Sirdaryo viloyatidan o‘tuvchi qismida joylashgan 64 km hududda 91 ming dona, Jizzax viloyatidan o‘tuvchi 62,0 km hududda 127 ming jami, 218 ming dona hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos ko‘chatlar ekish ishlari amalga oshirildi.

Sug‘oriladigan ekin maydonlari atrofida 2 500 gektarda ihota daraxtzorlari barpo etilib, 5 million dona ko‘chat o‘tqazildi. Xususiy sektor ko‘magida mayda shoxli mollar soni 170 ming boshga, parrandalar 1,2 milliontaga, asalari oilalari esa 220 mingtaga yetkazildi. Nukus shahri atrofida hamda Urganch shahri va Urganch-Gurlan trassasi bo‘ylab 5 kilometrli masofada katalpa, qayrog‘och va yapon saforasi kabi turlardan iborat “yashil belbog‘lar” barpo etildi.

O‘rmon muhofazasi yo‘nalishida 94 ming gektarda fitosanitar holat o‘rganilib, 66 ming gektar maydonda zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash tadbirlari o‘tkazildi. Yong‘in xavfi yuqori mavsumda muassasalarda uzluksiz navbatchilik yo‘lga qo‘yildi hamda aholi va tashrif buyuruvchilarni ogohlantiruvchi 2 000 dan ortiq bannerlar o‘rnatildi. Bundan tashqari, 5 280

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

gektarda dorivor va ozuqabop oʻsimliklar plantatsiyalari tashkil etilib, 9 062 tonna xomashyo olindi. 2023-yilda umumiy qiymati 18,7 million dollarlik 3 ta grant loyihasi boʻyicha kelishuvga erishildi.

Oʻrmon fondi yerlaridagi ekoturizm obyektlari soni 280 taga, eko marshrutlar soni 38 taga, tashrif markazlari soni 5 taga yetkazildi. Olinadigan yalpi daromad 320 mlrd soʻmga yetkazildi. Oʻrmon mahsulotlari boʻyicha Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 8,8 trln soʻmga yetkazildi. Oʻrmon xoʻjaliklari tizimida 7,8 ming nafar yangi ish oʻrinlari yaratildi [3].

Oʻrmonlarni muhofaza qilish sohasida prokuror nazoratini kuchaytirishga kelsak, bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarning ikki guruhini ajratib koʻrsatishimiz mumkin.

Birinchi guruh, bu davlatning qonun ijodkorligi faoliyati, ushbu sohadagi ekologik vaziyatning yomonlashuvi, soʻnggi 8 yil ichida oʻrmonlarni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organlarning doimiy va har doim ham asosli boʻlmagan isloh qilish tendensiyasi bilan bogʻliq boʻlgan.

Ikkinchi guruh, bu Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan oʻrmonlarni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarning bajarilishi ustidan prokuror nazoratini kuchaytirish va toʻgʻri tashkil etilishini ta'minlash uchun tegishli sohaviy buyruqlarni qabul qilish bilan bogʻliq boʻlgan ichki omillar.

Shu bilan birga, prokuratura tomonidan korrupsiya bilan bogʻliq boʻlgan boshqa omillarni oʻz ichiga olgan normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan talablar qoʻyish protestlar berish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

Sohadagi yana bir manba – oʻrmon xoʻjaligi va daraxt kesish mas'ullarining oʻz xizmat vazifalariga e'tiborsizligidir. Mansab mavqeidan foydalanib sodir etiladigan bu kabi qonunbuzarliklar qilmishning ijtimoiy xavfliligini yanada oshiradi. Shu bois, nazorat mezonlari hamda amaliyotda eng koʻp uchraydigan qoidabuzarliklarni tahlil qilish oʻrinlidir.

Prokurorlik tekshiruvlarida aniqlanayotgan asosiy huquqbuzarliklar sirasiga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, yongʻin xavfsizligi qoidalarining buzilishi. Ushbu yoʻnalish oʻrmon muhofazasida eng salmoqli qismni tashkil etadi. Soʻrovnomada qatnashganlarning 30 foizi ham aynan yongʻinga qarshi nazorat sustligini va uni kuchaytirish lozimligini ta'kidlagan. Buning sababi, yongʻinlar atrof-muhitga tuzatib boʻlmas zarar yetkazadi: bioxilma-xillik va oʻsimlik qoplami yoʻqotiladi, tuproqning unumdor qatlami yemiriladi, hayvonot dunyosining yashash muhiti va yogʻoch resurslari boy beriladi, karbonat angidrid ortib, global isish hamda kasalliklar tarqalishiga zamin yaratiladi [4].

Xorijiy ekspertlarning ta'kidlashicha, oʻrmon yongʻinlarining keng tarqalishining bir necha sabablari mavjud boʻlib, ularga - oʻrmon yongʻinlarini tez oʻchirish uchun zarur boʻlgan oʻrmon yoʻllari tarmogʻining yoʻqligi, tozalashning past intensivligi tufayli oʻrmonlarda quruq yogʻochning mavjudligi va odamlarning mas'uliyatsiz xatti-harakatlari kirishini sanab oʻtishgan [5].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

O‘rmon yong‘inlarining tabiiy tizimlarga ko‘rsatadigan og‘ir ekologik oqibatlari prokurorlarning ushbu sohaga alohida e'tibor qaratishiga sabab bo‘lmoqda. Biroq bunday xavfli oqibatlar o‘rmon muhofazasiga oid boshqa huquqbuzarliklarga ham xosdir.

“O‘rmon to‘g‘risida”gi qonunda noqonuniy daraxt kesishga qarshi normalar ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, nazoratni yanada tizimlashtirish va harakatlarni birlashtirish uchun Bosh prokuratura darajasida alohida idoraviy-huquqiy hujjat qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu hujjat prokurorlarning e'tiborini sohadagi qonunchilik ijrosiga manzilli jalb etishga xizmat qiladi. Qolaversa, o‘tkazilgan so‘rovnomada respondentlarning 69 foizi Bosh prokurorning amaldagi buyruq va topshiriqlari o‘rmon muhofazasida to‘liq samarali nazorat o‘rnatish uchun yetarli emas, deb hisoblashini bildirgan [6].

Prokurorlar tomonidan aniqlangan ushbu guruhga kiruvchi huquqbuzarliklarga kelsak, ular quyidagilardan iborat:

o‘rmon yong‘inlari bilan qoplangan maydonlar to‘g‘risida tegishli organlarga noto‘g‘ri ma'lumotlar taqdim etish;

o‘rmon yong‘inlarini o‘chirish bo‘yicha yig‘ma rejalar loyihalarini o‘z vaqtida ishlab chiqmaganligi;

o‘rmon foydalanuvchilari tomonidan o‘rmonlarni yong‘indan muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablari va ijara shartnomalari shartlari (o‘rmon maydonlarini daraxt kesish, qoldiqlaridan tozalamasligi va boshqalar) ustidan nazoratning yo‘qligi;

o‘rmonlarni rivojlantirish loyihalari yo‘qligi yoki ularning qonunchilik talablariga mos kelmasligi, o‘rmonni rivojlantirish loyihasi bo‘yicha davlat ekpertizasining xulosasi bo‘lmaganligi;

o‘rmon yong‘inlarini aniqlash va ularni tezda bartaraf etish uchun moddiy-texnik bazani yaratish bo‘yicha zarur darajada choralar ko‘rmasligi;

o‘rmon yo‘llarini qurish, tozalash, yong‘inga qarshi to‘siqlar yotqizish, yong‘inga qarshi minerallashtirilgan chiziqlar qurish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilmasligi;

yong‘inni o‘chirish uchun suv olish uchun sharoitlarning yetarli darajada ta'minlanmaganligi yoki umuman ta'minlanmaganligi;

quruq o‘tlarning nazoratsiz yonishi va boshqalar.

Prokurorlar tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining harakatlarida yong‘in xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha birlamchi chora-tadbirlar ko‘rilmaganligi bo‘yicha huquqbuzarliklar aniqlansa, prokurorlar aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda, aybdorlarni ma'muriy javobgarlikka tortish amaliyotidan samarli foydalanadilar. (O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 84-moddasi) [7]

O‘rmonlarni yong‘indan muhofaza qilishda prokurorlar barcha nazorat vositalarini to‘liq ishga solishlari, jumladan, qoidabuzarliklarni bartaraf etish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va yetkazilgan zararni undirish bo‘yicha sudlarga da'vo kiritishlari

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

shart.

Har bir yong‘in holatiga Jinoyat-protsessual kodeksi normalari asosida xolis huquqiy baho berilishi lozim. Shuningdek, yong‘in xavfsizligi talablarini buzishga oid ma'muriy bayonnomalarning o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi va yetkazilgan zararning qoplanishi prokuratura organlarining doimiy e'tiborida bo‘lishi zarur.

Ikkinchidan, o‘rmonlarni noqonuniy kesishga qarshi kurashish sohasidagi huquqbuzarliklar. Daraxtlarning noqonuniy chopilishi ekologiyaga va iqtisodiyotga o‘ta salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu qonunbuzarliklar dinamikasi yil sayin ortib borayotgani tufayli atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar ko‘lami ham g‘oyat ulkandir.

Prokuratura organlari noqonuniy daraxt kesish holatlarini aniqlash bilan bir qatorda, ushbu qonunbuzarliklarni fosh etish usullarini takomillashtirishda ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, vakolatli idoralar bilan hamkorlikda o‘rmon fondi holatini masofaviy kosmik monitoring qilish tizimidan foydalanilmoqda. Biroq ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatishdagi vaqt yo‘qotishlari sababli, mas'ul xodimlar voqea joyiga yetib borgunga qadar jinoyat izlari yo‘qotilishi kuzatilmoqda.

Qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, amaldagi ma'muriy va jinoiy jazo choralari yetkazilgan real ekologik zararga nisbatan juda yengildir. Shu sababli, o‘rmon muhofazasiga oid sanksiyalarni og‘irlashtirish zarurligini so‘rovnomada qatnashganlarning 63 foizi ham qo‘llab-quvvatlagan [8].

Shu munosabat bilan biz, Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning noqonuniy daraxt kesishga oid 84-moddasida berilgan jarimalar miqdorini sezilarli darajada oshirishni va ma'muriy huquqbuzarlik uchun jazo choralarini kuchaytirish zarur, deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonunda “o‘rmon plantatsiyalarini noqonuniy kesish” konsyepsiyasining qonunchilik bilan mustahkamlanishini va buning oldini olish mexanizmini batafsilroq ishlab chiqishimiz zarur. Jinoyat kodeksining 198-moddasi qishloq xo‘jaligi yerlarida joylashgan o‘rmon plantatsiyalarini noqonuniy kesish uchun javobgarlikni joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha moddaga qism kiritish orqali O‘zbekistonda noqonuniy daraxtlarni kesish miqdorini kamaytirishga ershish mumkindir.

Uchinchidan, o‘rmonlarni muhofaza qilish va asrash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mablag‘larni ajratish va sarflashda O‘zbekiston Respublikasi budjet qonunchiligini, shuningdek davlat buyurtmalarini joylashtirish va bajarish sohasidagi qonun hujjatlarini buzish. *U*shbu qoidabuzarliklar odatda axborot ta'minotining yetarli darajada emasligi (auksion o‘tkazish to‘g‘risidagi bildirishnomalarni joylashtirish va e'lon qilish shartlari hamda tartibini buzish), shartnomalarning xabarnoma shartlariga rioya qilmaslik, o‘tkazish bo‘yicha shartnomalarning bajarilishida o‘rmonlarni muhofaza qilish choralari yoki bajarilgan ishlar natijalari

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

to‘g‘risida bila turib yolg‘on ma'lumotlarni qabul qilish va topshirish aktlariga kiritish nazoratning yo‘qligi hisoblanadi.

O‘rmonlarni muhofaza qilish bo‘yicha davlat shartnomalarining talab darajasida bajarilmaganligi, ular doirasida yong‘inga qarshi tadbirlar yetarlicha o‘tkazilmayotgani o‘rmon yong‘inlarining katta maydonlarda tarqalishining sabablaridan biri hisoblanadi.

To‘rtinchidan, o‘rmonlarni zararkunandalardan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini buzish.

Bu toifadagi huquqbuzarliklar o‘rmonlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati amaliyotida eng ozchilikni tashkil qiladi. Buni o‘tkazilgan so‘rov natijalari ham tasdiqlaydi, ularning atigi ikki foizi ushbu nazorat sohasiga e'tibor qaratilayotganini ta'kidlagan [9].

Beshinchidan, davlat o‘rmon nazoratini amalga oshirishga vakolatli organlar tomonidan yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirishni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yoki ularning huquq va majburiyatlarini belgilovchi qonun hujjatlarini buzishi.

O‘rmondan foydalanuvchilarni tekshirish grafigi to‘g‘risida xabardor qilish tartibi va muddatlarining eng ko‘p buzilishi, tekshirishlar natijalarini qayd etish va tekshirishlar davomida aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan choralar ko‘rish tartibi, aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etishni talab qiluvchi buyruqlar har doim ham berilmasligi, chiqarilgan buyruqlarning bajarilishi to‘g‘risida ma'lumotning mavjud emasligi shular jumlasidandir.

Oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida belgilangan normalarni buzish. O‘rmon xo‘jaligi sohasida nazoratni amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari noqonuniy daraxt kesish faktini aniqlaganda, huquqbuzarning harakatlarida O‘zbekiston Respublikasi “Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi” kodeksida nazarda tutilgan ma'muriy javobgarlik mavjudligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqmaydi. Xususan, huquqbuzarlikni sodir etish qurollari, yog‘ochni kesish usullari haqida tushuntirishlar olinmaydi. Aybdor shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikdan ozod qilish faktlariga tekshirish materiallarini vakolatli organlarga yubormaslik yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Yettinchidan, o‘rmonlarni muhofaza qilish sohasidagi boshqa huquqbuzarliklar.

O‘rmon muhofazasidagi boshqa turdagi qonunbuzarliklarga hududlarning maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi, noqonuniy chiqindixonalarni tozalash va ularning oldini olish tadbirlarining e'tiborsiz qolishi kiradi. Shuningdek, ustuvor investitsiya loyihalari doirasidagi ekologik muhofaza tadbirlari muddatlari tez-tez buzilib, ular po‘skal va po‘skal bo‘lmagan holda to‘liq bajarilmay qolmoqda.

“O‘rmon to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasiga muvofiq o‘rmon fondi yerlari davlat tashkilotlariga doimiy foydalanishga hamda jismoniy va yuridik shaxslarga ijaraga berilishi mumkin. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, bir qator quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

birinchidan, o‘rmon xo‘jaligi, o‘rmonlarni muhofaza qilish sohasida prokuror nazorati hisobotlari joriy etilganidan buyon ushbu sohada aniqlangan qonunbuzarliklarning ko‘payishi tendensiyasi kuzatilmoqda;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ikkinchidan, o‘rmonlar xo‘jaligi sohasidagi qonunlarning ijrosi ustidan prokuror nazorati usullarini takomillashtirish maqsadida prokurorlar ushbu sohadagi qonun hujjatlarining tipik buzilishi guruhlaridan samarali foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

O‘tkazilgan tahlillar o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi prokuror nazoratini kuchaytirish zarurati davlat tomonidan o‘rmonlarni kengaytirish va muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lamining ortishi, sohada katta miqdordagi budjet mablag‘lari sarflanishi hamda huquqbuzarliklarning turli ko‘rinishlarda davom etayotganligi bilan belgilanishini ko‘rsatadi. O‘rmon maydonlarini sun'iy yo‘ldosh texnologiyalari va geografik axborot tizimlari asosida monitoring qilish qonunbuzarliklarni aniqlash imkoniyatlarini kengaytirsa-da, olingan ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va vakolatli organlarga o‘z vaqtida yetkazish mexanizmlari yetarli darajada samarali yo‘lga qo‘yilmasa, mazkur texnologiyalar kutilgan natijani bermaydi.

O‘rmon xo‘jaligi sohasida aniqlanayotgan huquqbuzarliklarni shartli ravishda yettita asosiy guruhga ajratish mumkin: o‘rmon yong‘inlaridan muhofaza qilish talablarini buzish; daraxt va butalarni noqonuniy kesish; budjet mablag‘lari va davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzarliklar; o‘rmonlarni zararkunandalardan muhofaza qilish choralarini bajarmaslik; davlat nazorati tekshiruvlarini tashkil etish tartibini buzish; ma'muriy huquqbuzarliklarni to‘g‘ri rasmiylashtirmaslik va aybdorlarni javobgarlikdan asossiz ozod qilish; o‘rmonlarni chiqindilar bilan ifloslantirish hamda investitsiya loyihalaridagi ekologik chora-tadbirlarni bajarmaslik. Ushbu tasnif prokurorlarga tekshiruvlarni rejalashtirish, xavf darajasi yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash va ta'sir choralarini maqsadli qo‘llash imkonini beradi.

O‘rmon yong‘inlari bilan bog‘liq nazoratda yong‘inga qarshi rejalarning mavjudligi, moddiy-texnik bazaning holati, o‘rmon yo‘llari va minerallashtirilgan himoya chiziqlarining tashkil etilganligi, suv manbalaridan foydalanish imkoniyati hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan profilaktik choralar ko‘rilganligi tekshirilishi lozim. Aniqlangan holatlarga faqat ma'muriy chora qo‘llash bilan cheklanmasdan, yetkazilgan zararni undirish, huquqbuzarlikning og‘irligiga qarab jinoiy-huquqiy baho berish va kelgusida shunday holatlarning takrorlanishini bartaraf etuvchi choralarni belgilash zarur.

Noqonuniy daraxt kesishga qarshi kurashishda amaldagi javobgarlik choralarining yetkazilgan ekologik va iqtisodiy zararga mutanosibligini qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Shu munosabat bilan Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda belgilangan jarimalarni kuchaytirish, “o‘rmon plantatsiyalarini noqonuniy kesish” tushunchasini qonunchilikda aniq belgilash va ijtimoiy xavfli holatlar uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirish asosli hisoblanadi. Biroq jazoni og‘irlashtirishning o‘zi yetarli emas; kosmik monitoring ma'lumotlarini tezkor qabul qilish, noqonuniy kesish joylariga zudlik bilan chiqish va dalillarni saqlash tizimi ham yo‘lga qo‘yilishi kerak.

O‘rmonlarni muhofaza qilish va tiklashga ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazorat ham alohida ahamiyatga ega. Davlat xaridlarida axborotni e'lon qilish talablarini buzish, bajarilmagan ishlarni qabul qilish hujjatlariga kiritish, yong‘inga qarshi tadbirlarni to‘liq bajarmaslik va shartnoma shartlariga rioya etmaslik o‘rmonlarga bevosita ekologik zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli prokuror nazoratida moliyaviy

qonunbuzarliklar faqat budjet intizomi masalasi sifatida emas, balki o‘rmonlarni muhofaza qilish choralarining bajarilmasligiga olib keluvchi omil sifatida baholanishi lozim.

Umuman, o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi prokuror nazorati hisobotlari joriy etilganidan keyin aniqlanayotgan qonunbuzarliklar sonining ortishi sohada qonunbuzarliklar ko‘payganini ham, nazorat va hisob yuritish tizimi faollashganini ham anglatishi mumkin. Shuning uchun mazkur ko‘rsatkichni bir tomonlama baholash to‘g‘ri emas. Prokuror nazoratining haqiqiy samaradorligi aniqlangan huquqbuzarliklar soni bilan emas, balki ularning bartaraf etilganligi, yetkazilgan zararning qoplanganligi, aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilganligi va qonunbuzarliklarning takrorlanishi kamayganligi asosida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Географик ахборот тизими (географик ахборот тизими, ГИС) фазовий (географик) маълумотларни ва зарур объектлар тўғрисидаги тегишли маълумотларни йиғиш, сақлаш, таҳлил қилиш ва график тасвирлаш тизимидир. (A geographic information system (geographic information system, GIS) is a system for collecting, storing, analyzing, and graphically representing spatial (geographical) data and relevant information about necessary objects)

2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасида Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Ўрмон хўжалиги агентлиги директори Н.Бакировнинг “Ўрмон фонди ерларидан самарали фойдаланиш ҳолати тўғрисида”ги ахбороти. (Information from N. Bakirov, Director of the Forestry Agency under the Ministry of Ecology, Environmental Protection, and Climate Change, "On the status of the effective use of forest fund lands" in the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan) Электрон манба: https://urmon.gov.uz/uploads/Malumot-2023-2024-yillarda.pdf (мурожаат вақти: 08.02.2024).

3. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасида Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Ўрмон хўжалиги агентлиги директори Н.Бакировнинг “Ўрмон фонди ерларидан самарали фойдаланиш ҳолати тўғрисида”ги ахбороти. (Report of the Director of the Forestry Agency under the Ministry of Ecology, Environmental Protection, and Climate Change of the Republic of Uzbekistan, N. Bakirov, "On the State of Effective Use of Forest Fund Lands" to the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan) Электрон манба: https://urmon.gov.uz/uploads/Malumot-2023-2024-yillarda.pdf (мурожаат вақти: 08.02.2024).

4. 2024 йил 1 мартидан 20 мартига қадар https://forms.gle/Yt5Vvh528cBjiSe49 ҳаволаси орқали интернет тармоғида ўтказилган ижтимоий сўров натижалари.

5. Макар С.В. Ключевые элементы для совершенствования экономико-правового механизма реализации национального лесного потенциала. – М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации; ИД «Юриспруденция», 2012. – С.42-43 (Makar S.V. Key elements for improving the economic and legal mechanism for realizing national forest potential. - Moscow: Institute of Legislation and Comparative Law under the Government of the Russian Federation; ID “Yurisprudence”, 2012. – P. 42-43)

6. 2024 йил 1 мартидан 20 мартига қадар ҳаволаси орқали Интернет тармоғида ўтказилган ижтимоий сўров натижалари

7. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.03.2024 й., 03/24/916/0167-сон (Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Responsibility. National Database of Legislation, 01.03.2024, No. 03/24/916/0167)

8. 2024 йил 1 мартидан 20 мартига қадар ҳаволаси орқали Интернет тармоғида ўтказилган ижтимоий сўров натижалари

9. 2024 йил 1 мартидан 20 мартига қадар ҳаволаси орқали интернет тармоғида ўтказилган ижтимоий сўров натижалари.